

**SADRIDDIN AYNIYNING “DOXUNDA” ASARIGA AYRIM  
CHIZGILAR**

***Qurbanova Manzura Shuxratulla qizi***

*Buxoro davlat universiteti*

*4-kurs talabasi*

***Sayliyeva Zarina Raxmuddinovna***

*Buxoro davlat universiteti, PhD, dotsent*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'rta Osiyoning o'tmishi, madaniyati, o'zbek va tojik xalqlari adabiyotining tarixi, bu qardosh xalqlarning klassik shoirlari, tazkiranavislari, adiblari va ma'rifatparvar olimlari to'g'risida tadqiqot ishi olib borgan adabiyotshunos olim, Buxoro tarixinining mohir bilimdoni Sadriddin Ayniyning "Doxunda" asari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Sadriddin Ayniy, yozuvchi, olim, G'ijduvon, "Doxunda", "Qullar", "Sudxo'rning o'limi", Miyon Buzruk, "Obxona", kanaxona, jadidlar

Sadriddin Ayniy — yozuvchi, olim, o'zbek hamda tojik adabiyotining XX asr jamoat arbobi. 1878-yil Buxoro viloyatining G'ijduvon tumani, Suktari qishlog'ida tug'ilgan. Avval eski maktabda (1884-1887), keyin madrasalar: Mir Arab (1890-1891), Olimxon (1892-1893), Badalbek (1894-1896), Hoji Zohid (1896-1899), Ko'kaldosh (1899-1900)da tahsil olgan.

XX asr boshida shakllanib borayotgan "Yosh buxoroliklar" harakatida qatnashadi. Yangi usul maktablarini tashkil qilib, ushbu maktablar uchun "Yoshlar tarbiyasi" darsligini tuzadi.(1909) Adib sifatida "Doxunda" va "Qullar" romani, "Bo'lganim yo'q" va "Kengash" feletonlari, "Sudxo'rning o'limi" qissalari bilan shuhrat qozonadi. Miyon Buzruk Sadriddin Ayniyning "Doxunda" romanini tojikchadan o'zbek tiliga o'girib, 1932-yilda Toshkentda nashr ettiradi.

30-yillarga kelib, amir sultanatidan qo'rwmagan odam sho'ro siyosatidan dahshatga tushadi. Chunki 20-yillarning oxiridayoq qatag'on bulutlari ko'k yuzini

qoplayotgan edi. Sinchkov voqelikning ichki jarayonlarini teran tushunadigan ijodkorning bulardan bexabar qolishi mumkin emas edi. Shu bois o'tmish mavzuida yozilgan bo'lsa-da, "Doxunda" (1930), "Qullar" (1934) romanlarida Oktabr to'ntarishi arafasi va undan keyingi davr voqealari atroficha yoritiladi. O'sha davr adabiyotshunosligi tili bilan aytganda, "yot unsurlar", "bosmachilar" harakatlariga munosabat bildiriladi. Albatta, bu harakatga qo'shilganlar orasida mol-mulkidan judo bo'lgan, yerlari musodara qilingan alamzadalari ko'pchilikni tashkil qilardi. Bularning aksariyati savodsiz, uzoqni ko'rolmaydilar kishilar bo'lib, milliy ozodlik, Vatan mustaqilligi va din ravnaqi uchun kurashga kirishganlar juda ozchilikni tashkil qilgan. Olomonchilik kayfiyatiga asoslangan bu oqim shuning uchun milliy harakat tusiga aylanmagan. Qolaversa, jamiyatdagi mavjud tabaqalarni birlashtiradigan yagona bir g'oya, maqsad, manfaatlar birligi yo'q edi.<sup>1</sup>

Adibning "Doxunda" asariga to'xtalsak, "Doxunda" so'zining asl ma'nosi asarda quyidagicha izohlanadi: "Buxoroda bu umumiy bir odat, buxoroliklar Ko'histondan (tog'lik viloyatlar) kelgan har bir kambag'alni "doxunda" deydilar"- deya asar qahramoni Abdullaxo'ja tilidan ta'riflanadi. Asar voqealari tog'lar oralig'ida joylashgan Darai Nihon nomli yerning ta'rifi bilan boshlanadi. Kichik bir tog'li o'lkaning go'zal tabiatni, insonlari xususida so'z boradi. Shundan so'ng, ikki sevishgan qalblar tasviriga ulanib, ularning bir-biridan go'zal va baxtli kunlari tasviri keltiriladi. Asarda berilgan ikki sevishgan qalblarning to'satdan ajralib ketishlari xuddi "Yulduzli tunlar" romanidagi voqealar singari birida Tohir va Robiyaning bir-biridan ayro bo'lib ketishlari bo'lsa, ikkinchisida esa Yodgor va Gulnorning taqdirlari bo'linib ketish tasvirini ko'rishimiz mumkin.

Asar voqealari shundan so'ng Yodgor va uning oilasini tanishtirishga qaratilib, otasi Bozor, onasi Mehrmoh, otasining inisi Safar va uning ayoli To'timoh bo'lib, oila tinchlik-xotirjamlikda, xush-xursandchilikda yashab kelishayotgan kunlarning birida Bozorning inisi Safar noma'lum kasallikdan xastalanib yotib qoladi.( Oilaning parokanda bo'lib ketishi shu yerdan boshlangan

---

<sup>1</sup> zarnews.uz

edi.) Safarning bemor bo‘lib, yotib qolganligidan xabar topgan eshon va Hojiyoqubboy turli hiyla-yu, nayranglar ishlatib, Bozorning jondan suygan ikki ho‘kizidan birini qo‘lga kiritib uylariga xursand bo‘lib qaytishganda Safarning janozasiga xabar keladi. Qishloq kattalari Bozor bilan maslahatlashib, ukasi Safarning bu dunyoga kelib, na o‘zidan bir tuyoq, na yaxshi nom qoldirib ketayotganligini, yil ag‘darib ko‘rib, atigi 32 yil umr ko‘rganligini uning janozasini esa ko‘ngildadigidek o‘tkazish kerakligini aytishadi.(Bu paytda Hojiyoqubboy xuddi o‘zini Bozorga eng yaqin kishidek tutib, unga yordamini darig‘ tutmasdan o‘zini o‘qqa-cho‘qqa urib yurgandi.) Safarning janozasini hech kimdan kam qilmasdan, pul kerak o‘rinda pul, mol kerak o‘rinda mol, jon kerak bo‘lganda jonini ham ayamasdan berishini ta’kidlashadi. Bu paytda Bozor inisining to’satdan vafot etishidan gandiraklagan, es-hushidan ayrilgan edi. Shu sababli o‘zidan “saxiy boy” ko‘rinishini yasab olgan Hojiyoqubboy janozaga ketadigan barcha xarajatlarni o‘z bo‘yniga oladi. Janoza xarajatlari hisoblab chiqilganda jami hisobda 100 tanga naqd pul va 5 qop bug’doy hisobida qarzdor bo‘lgan edi. ( Chunki bu voqeа yuz bergen vaqtarda har qanday savdo-sotiq mollarni ayirboshlash yo‘li bilan bo‘lardi, sanoat mollari qo‘y-echki badaliga, dehqonlarga bug’doy badaliga sotilardi. Hojiyoqubboyning kafanlik va yirtish uchun bergen mollari bug’doy bilan baholanadi, natijada Bozor hojidan 5 qop bug’doy qarzdor bo‘lib qoladi.) Shundan so‘ng, Bozor oqsoqol bilan maslahatlashib o‘zining qo‘lida bor bo‘lgan bug’doyni boyga arzonroqqa berishi yo‘li bilan qarzidan qutilishi va qolgan 5 qop bug’doyni esa yanagi yil hosildan 10 qop qilib qaytarishi kerak bo‘lib qolgandi. Bu orada qarzining vaqtini uzaytirib bergen Hojiyoqubboyning xizmatlarini ham qilishi, xuddiki boyga o‘z qo‘li bilan yog‘li patir yedirayotganga ham o‘xshardi.

“Keyingi yili Bozorning dehqonchilik ishlari burungiday avj olmadi, chunki ho‘kizi — toq, o‘zi — yolg‘iz. Buning ustiga, “goh-goh” boyning ishiga ham borishga majbur edi. Mehrmoh ham burungiday bo‘z to‘qib ro‘zg’orga kerak bo‘lgan kiyim-kechak va ko‘rpa-yostiqlarni uy matoi bilan ta’mindan qilolmasdi. Chunki Safarning xotini To‘timoh erining qirqidan keyin o‘z qarindoshlarinikiga

ketgan va Mehrmoh ro‘zg‘or ishida yolg‘izqo‘l bo‘lib qolgan edi. Shuning uchun u qozon-tovoq, sigir-buzoqqa qarash, kir yuvish va yirtiq-yamoq tikishdan bo‘sholmas va bo‘z to‘qishga qo‘li tegmasdi.

Bozorning bug’doyi pishdi, o‘rilib, yanchilib, sovurilib bo‘ldi. Lekin xirmon boshiga hammadan burun Hojiyoquboyning odami 10 ta qop, ot-ulov bilan yetib keldi. Boyga 10 qop bug’doy to‘lanib, o‘roqchining, sovurvuchining, sartaroshning haqi, haqqullo, mirobxona, dorg‘oyona va boshqa balo-yu battarlar chiqarilgandan keyin, Bozorga xirmonning faqat chorisi qoldi. Go‘za, zig’ir va kunjut yer solig‘iga ketdi, sigir buzog‘i bilan birga sotilib, Safarning yiloshisiga sarf qilindi. Shunday qilib, Bozor bu yil qish boshidayoq boyning “yordam”iga muhtoj bo‘lib qoldi.”<sup>2</sup> Mana shu yerga diqqat bilan qaralsa, o‘ziga to‘q bo‘lgan bir oila boshqalarning ko’rsatayotgan “beminnat yordam”i sababli tubdan yemirilib, parokandalikka yuz tutib borayotganligini payqash qiyin emas. Bundan keyingi hodisalar inson aql-u tasavvurga sig’dira olmaydigan darajada o‘zgarib ketadi. Bozor majburlikdan, oilasini boqish tashvishi borligidan, boydan yana qarz olib, qarzdor bo‘lib qoladi. Olgan qarziga deb hisoblab, Bozorning foydalanim turgan bir parcha yerini ham tortib oladi. Bu orada o‘g‘lining sunnat to‘yini qilishga undab, Bozorda sariq chaqa ham puli bo‘lmasa-da, boyning qistovi bilan sunnat to‘yi o’tkaziladi. Uy egalari bu to‘ydan hech qanaqasiga manfaat ko‘rishmaydi. Tayyorlangan barcha yeguliklar, ichimliklarga chaqirilgan “mehmonlar” yeb, ichib, yalab-yulqab ketishadi. Bozor bo‘lsa og‘zini yalab, 2 barobar qarzga botib, o‘zining xaroba uyi, xotini va bolasidan o‘zga boyligi qolmay qish o‘rtasida ochlik, kambag‘allikdan aziyat chekib boyga qul bo‘lib qolishganini ham sezmay qoladi.

“Dunyoda nima ko‘p – zulm ko‘p, balo ko‘p, jazo ko‘p! Ammo begunoh insonni majburlab, o‘zi tug‘ilgan joyidan, o‘zining elidan, o‘zining nonidan, o‘zining suvidan, o‘zining daraxtlaridan, o‘zining daryolaridan, o‘zining

---

<sup>2</sup> Sadriddin Ayniy "Doxunda" 49-bet

mozoridan, o‘zining mehrobidan, o‘zining osmonidan ayirish, judo qilish dunyodagi eng katta gunoh, dahshat va shafqatsizlarcha qilingan vahshiylikdir!”<sup>3</sup>

Bahorning seryog‘in kelishi Bozorning ichkari hovlisida joylashgan mehmonxonasiiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. Yomg‘irning shiddat bilan yog’ishi oqibatida uydan chakki o‘ta-o‘ta bir burchagi bosib qoladi. Bu holatdan so‘ng birgina umidi bo‘lib turgan uyi ham qo‘ldan ketganligidan, endi hech qanaqasiga o‘z tug‘ilib o‘sgan yerida haqqi qolmaganligini anglagan Bozor xotini va bolasini olib, bu do‘zax hayotdan qochib ketmoqchi bo‘ladi va buning uddasidan ham chiqadi. Uyidan chiqib to‘rt qadam uzoqlashgan hamono uyi qulab bitadi. Shundan so‘ng jadal yurib boshi oqqan tomonga qarab ketaveradi. Yo‘lda ochlik, charchoq va boshpanasizlik yo’lovchilarni holdan toydiradi. Qaroqchilarga asir tushadi, endi amallab qutuldim deganda ayoli ochlik, tashnalikdan darmonsizlanib vafot etadi. Yetib borgan yerida qishloqdagi bir necha odamlarning yordami bilan bir o‘ra qazilib, mayyit ko‘miladi. So‘ngra bir boyga cho’ponlikka xizmatga kiradi va juda sharoitlari yaxshi bo‘lmasa ham molxonada yashay boshlaydi. Boyga chin dildan, sodiq xizmat qiladi, lekin uning bu darajada halol, insofli xizmat qilib yurganini ko‘rolmagan boy hiyla-yu nayranglar qo’llab, Bozorni o‘zidan qarzdor qilib qo‘yadi. Bozor endi yaxshi hayot kechiraman, uy-joy qilaman, o‘g‘limni o‘qitib, yaxshi bir qiz topib uylantiraman, balki keyinroq o‘zim ham uylanarman deb xayollar surib yurgan vaqtida oldingi hayotida Hojiyoqubboyning qilgan yomonliklaridan-da o‘tib tushgan Azimshohning makrlari Bozorning jonini olib ham uning o‘g‘li ustidan davom ettiriladi. Ulg’aygan, oq-u qorani tanigan yigit, otamning bunaqa qarzi yo‘q, men bu qarzni hech qachon to’lamayman deya bosh tortadi. Ota va o‘g‘il ularning boydan hech qanaqasiga qarzdor emasliklarini bilsalar-da, Bozor boyning oldidan o’tish va bundan keyingi hayotida qiyinchilik azob-uqubat ko‘rmaslik uchun o‘limi oldidan “qarzlarimni to‘la” deb vasiyat qilganligi sababli Yodgor majbur bu qarzlarni to’lashni o‘z bo‘yniga oladi. Otasi vafotidan so‘ng bir muddat qarzlarni to‘lab boyning xizmatlarini qilib yuradi. Lekin doim qulay

---

<sup>3</sup> Javlon Jovliyev "Buxoro,Buxoro,Buxoro" @Mutolaaxona

fursatni topib qochib ketish fikrida bo‘ladi. Nihoyat qulay fursat kelganda Yodgor uzoq bir hududga qochib ketadi. U yerdagi odamlar Yodgorni iliq kutib olishadi. Sarijo‘y aholisi mehnatkash, mehmondo’st bo’lganligi sababli bir oila bilan yashay boshlaydi. Tog‘lik qizni, ya‘ni Gulnor ismli qizni yaxshi ko‘rib qoladi. Qiz ham hech bir yigitni yoqtirmay Yodgorga nisbatan iliq tuyg’ularni his qiladi. Bir muddat ikki sevishgangan qalblar birga yurishadi. Gulnorning otasini turli aldovlar yo‘li bilan rozi qilib amirga xotinlikka berishmoqchi bo‘ladi. Bundan keyingi voqealar jadal sur‘atda rivojlanib ketadi. Azimshoh Yodgorni topib olib yana qullikka mahkum etadi. Qizni esa o‘g‘irlab ketishadi. Yodgor bu voqeadan so‘ng yana qulay fursatni topib qochib ketish fikrida yuradi. Shunday kunlarning birida Azimshoh qo‘ylarini sotish uchun Buxoroga keladi. Yodgor boyning qo‘ylarini haydab olib keladi va ularni sotganlaridan so‘ng Yodgor bir yigitning taklifi bilan amirga sarbozlikka kiradi. Yodgorning sarboz bo‘lganini eshitgan boy uni hech qachon so‘rab-surushtirmaydi, chunki sarbozlikdan bosh tortib qolsa uning o‘rniga boshqa odam topib qo‘yish xarajatlari boyning bo‘yniga tushardi. Shuning uchun tanigan-bilganlarga uni tanimasligini tayinlaydi.

Yodgorning sarboz bo‘lishdan asl maqsadi Azimshohning hukmronligidan qochish va Gulnorni topib uning vasliga erishish edi. U yerdagi hayoti ham boshida bir muncha yaxshi bo‘lib keyinchalik esa izidan chiqib ketadi. Yana qarzdorlik, kaltaklanish, amir zindonida bir necha bor yotish, obxona, kanaxona, qassobxona singari dahshatlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib yolg‘iz uning o‘zagina u yerdan tirik chiqadi. Mazkur joylarda vahshiyarcha osilgan, so‘yilgan va turli qyinoqlarga solinib o‘ldirilgan begunoh insonlarning qoni to’kiladi. Bu voqealar Yodgorning ko‘z o‘ngida sodir bo‘ladi. Amirning hukumati millionlab begunoh aholining, jadid ma‘rifatparvarlarining sababsiz qoni to’kilishiga sababchi bo‘ladi. Nihoyat barchasi tugab, amir qochib ketganidan so‘ng Yodgor ham ozodlikka chiqadi. Asar qahramoni Abdullaxo‘ja Yodgor bilan obxonada ko‘proq suhbatda bo‘ladi. U Yodgorga tashqi olamda sodir bo‘lgan voqealarni birma-bir aytib, kelajak haqida ogohlantiradi. So‘ngra unga quyidagilarni aytadi: “Har holda mening kunlarim sanoqli qolgan, lekin sen hushyor va ehtiyyot bo‘l!

Ishqilib, o‘zingni saodatli ozodlik kunlariga yetkaz, revolyutsiyani mustahkam qiladigan kishilarga qo’shilib ishla! Kommunistlar partiyasiga kir! O‘sha vaqtida partiya rahbarligida tarbiya topib, ozodlik yo‘lida va xalqning baxt-saodati uchun katta ishlar qila olasan. Men o‘laman! Yashasin revolyutsiya!”<sup>4</sup>- deb Abdullaxo‘ja o‘z so‘zini tugatadi. Yodgor Abdullaxo‘janing bu kabi so’zlaridan katta motivatsiya olib, u yerlardan qutilib chiqqach, til o’rganishga kirishib ketadi. Avvalo alifboden boshlab, keyin esa duch kelgan gazeta, jurnal, kitoblardan o‘qib til o’rganishga harakat qiladi va oradan 6 oy o’tgach qilgan harakatlari meva berishni boshlaydi. U bu paytda ikkita tildan birmuncha xabardor bo‘ladi. Uning bu kabi tirishqoqligi, o‘z ustida ishlashi, harakatlari hozirgi kunda kitobxonlar orasida ozmuncha tanilib ulgurgan yozuvchi Javlon Jovliyevning “Buxoro, Buxoro, Buxoro” nomli hikoyasi qahramoniga ham o‘xshaydi. Doxundani tegirmonga tushib uning achchiq va zaharli tishlaridan eson-omon qutilib chiqqan va shu qiyinchiliklardan yetarlicha xulosa chiqargan mard inson sifatida ko‘rishimiz mumkin. Asar so‘nggigacha Yodgor eli, yurti, jannatmakon go‘shalarining omon qolishi, yov hamda bosqinchilar qo‘liga o‘tib ketmasligi uchun oshkora, pinhona tinimsiz harakat qiladi. Bilimlarini yanada mustahkamlash uchun oliygohlarda o‘qiydi. Gulnorni topadi, uni ham o’qitadi va ikkalasi yangilangan, oldingidan anchagina o‘zgargan Darai Nihonga borishadi, yoshlik yillarini eslashar, ularga tanish bo‘lgan odamlar bilan ko‘rishishadi, bog‘dorchilik hamda dehqonchilikda o‘rgangan bilimlarini mustahkamlashadi va yangi bilimlar ham o’rganib qaytishadi.

Yodgorning juda aqli, dono, sergak va tashabbuskorligi umrining so‘nggi lahzasida ham xalqning xizmati uchun bel bog‘lab o‘limdan ham qo‘rqmay qahramonliklar qilishi Shuhratning 1963-1964-yillarda yozilgan “Oltin zanglamas” romanidagi Sodiq obrazi Yodgorning yoki bo‘lmasa Sodiqning qanday bo‘lsa shundayligicha ko‘chirib olib qo‘yilgan nusxasi desa xato bo‘lmaydi.

---

<sup>4</sup> Sadriddin Ayniy “Doxunda” 238-bet

Yodgorning yoshlik yillaridanoq hayoti davomida ko‘rgan-kechirganlari boylarning uning ustidan, ota-onasi ustidan qilgan hukmronliklari, unga hattoki yerda ivirsib yotgan axlatdan ham o‘tib tushgan muomalani ko‘rgan, yosh umrini boylarning quli bo‘lib, so‘ngra amir zindonlarida, obxona, kanaxona va shunga o‘xshash juda yomon joylarda umrining yosh va serg‘ayrat yillarini o‘tkazib yuborgan, hamda o‘zi uchun kerakli xulosalar chiqarib, hayotning qo‘ygan sinovlaridan toblana-toblana o‘zi millati uchun kerakli shaxsga aylanganligini asarni o‘qish mobaynida ko‘rishimiz mumkin.

Sadriddin Ayniy mazkur asari orqali o‘sha davr muhitini bir oila misolida ochib berishga harakat qilgan. Boylarning kambag’allar ustidan qilgan hukmronligi, amirning shafqatsiz tuzumi yaqqol ko‘rsatib berilgan. Asarni o‘qish mobaynida inson his-tuyg‘ularini uyg’otib, etini junbushga keltiradi. Bexosdan oqqan ko‘z yoshlaringni ham sezmay qolasan kishi! Asar bir qarashda oddiy voqealar tizimiga asoslangan bo‘lsa-da, uning asl mohiyati ko‘p yillik tarixni o‘zida mujassam etgan. Tinch-totuvlikda yashayotgan oila boshqalarning ochko‘zligi va mol-dunyoga o‘chligi tufayli parchalanib ketishiga sababchi bo‘ladi. Asarning bosh qahramoni hisobgan Yodgor(Doxunda) juda yosh paytidan bolalik gashtini ham surishga ulgurmay jismoniy va ma’naviy qiyinchiliklarni boshidan kechiradi. Avvaliga onasidan, keyinchalik esa otasidan ham ajralib yetim bo‘lib qoladi. Shundan so‘ng esa boylarga qul bo‘lish, qullikdan qutilib yaxshi hayot kechiraman, sevgilimni topib baxtli yashayman degan o‘y-u xayollar bilan sarbozlikka kiradi, lekin u yerdagi bir muddat yaxshi bo‘lib turgan holat ham uzoqqa bormaydi. Zindonlar, obxona-yu, kanaxonalar Yodgorning eng so‘lim yigitning davrini yulib ketadi. Shu kabi dahshatlarni, qiyinchiliklarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Yodgor, u yerdan qutilib chiqqan kunidan toki umrining so‘nggigacha el-u yurtining tinch-xotirjam yashashi, mashaqqat ko‘rmasligi , u kabi azob-uqubat ko‘rmasdan tinch-totuv umrguzaronlik o‘tkazishi uchun tinimsiz harakat qiladi. Bu yo‘lda hech tap tortmay jonini ayamasdan xalqi uchun xizmat qiladi. Sadriddin Ayniy mazkur voqealarni kitobxon uchun tushunarli tarzda, sodda va ravon ifodalay olgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sadriddin Ayniy. Asarlar. Ikkinchchi tom. “Doxunda” Toshkent 1964
2. Д-КУРОНОВ, З.МАМАЖОНОВ, М.ШЕРАЛИЕВА АДАБИЁТШУНОСЛИК ЛУГАТИ Тошкент “Akademnashr” 2013
3. A.Ulug‘ov “Adabiyotshunoslik nazariyasi” G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2018
4. Dilmurot Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: Fan, 2007
5. Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar” Roman Toshkent 2024
6. Shuhrat “Oltin zanglamas” Roman Toshkent 2024
7. Javlon Jovliyev “BUXORO, BUXORO, BUXORO...” Hikoya Toshkent 2024 @Mutolaaxona
8. Sayliyeva Z. EY SABO, SHARH AYLA AVVAL DILSITONIMDIN XABAR //Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 200-205.
9. Sayliyeva Z. R., Murodova M. R. Q. LITERACY OF PRAISE IN THE VERSES OF ALISHER NAVOI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 372-380.
10. Rakhmuddinovna S. Z., Mahliyo B. FALAK NILUFARLARIDIN CHASHMAYI MEHR GAR O'LDI PAYDO //E Conference Zone. – 2022. – С. 93-96.
11. Rakhmuddinovna S. Z. The Study of the Problems of Sufizm and Art in Navoi Studies //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 258-262.
12. Rahmuddinovna S. Z. et al. OMINA SHENLIKO ‘G ‘LINING” VIJDON AZOBI” ASARIGA TAQRIZ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 33. – №. 2. – С. 90-93.
13. Rakhmuddinovna S. Z. EY, SAFHAYI RUXSORING AZAL XATIDIN INSHO //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 112.

14. Raxmuddinovna S. Z., Bahromjonovna H. Z. USMON AZIM-ROST TUYG'ULAR KUYCHISI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2023. – T. 26. – №. 1. – C. 3-6.
15. Rakhmuddinovna S. Z., Qizi M. M. R. Prophet of the peace and blessings of allah be upon him (o prophet of the prophet hood...) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 5. – C. 31-36.
16. Rakhmuddinovna S. Z., Manzura K. MUHAMMAD RAHIMKHAN FERUZ AND HIS DESCENDANTS //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 142-146.
17. Rakhmuddinovna S. Z. About the Artistic Skills of Alisher Navoi //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 838-846.